

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

6 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 6, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 6, ISSUE 2



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№2 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2023-2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)

Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафазель Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
и.о. доцент (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)
Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Толипов Файзулла Саидович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr. 1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Xodjayev Sobir KEKSALIK VA ERTA QARISH SOTSIOGERONTOLOGIK MUAMMO SIFATIDA.....	4
2. To‘raxo‘jayeva Ra‘no DAVLAT XIZMATCHILARINI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH AHOLI ORASIDAGI NOROZILIK KAYFIYATINI OLDINI OLISH MEHANIZMI SIFATIDA.....	11
3. Turdikulov Shuxrat SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING INSTITUTIONAL YONDASHUVI.....	19
4. Mo‘minov Zokirjon ZAMONAVIY SOTSIOLOGIYA:IJTIMOIIY O‘ZGARISHLARDA MOBILLIK.....	26
5. Xoliqnazarov Rashidjon DUNYO VA MDH DAVLATLARI IJTIMOIIY HAYOTIDA ELEKTRON HUJJAT AYLANISH TIZIMINING O‘RNI.....	33
6. Shokirov Shaxrizod HUQUQBUZARLIK VA JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISHDA JAMOATCHILIK FIKRINI TA‘SIRI BO‘YICHA XALQARO TAJRIBA TAHLILI.....	41
7. Nurullayeva Umida XOTIN-QIZLARNI RAHBARLIK LAVOZIMLARIGA KO‘TARILISHI: TO‘SIQLAR VA IMKONIYATLAR.....	51
8. Nazarova Nilufar STRUCTURAL-FUNCTIONAL ANALYSIS OF ENSURING PROFESSIONAL COMPETITIVENESS OF YOUTH OF UZBEKISTAN.....	62
9. A‘zamova Kumush INSON QADRINI YUKSALTIRISHDA REGULYATIV FUNKSIYALARNI RIVOJLANTIRISH.....	72
10. Ixtiyarov Farxod INSON KAPITALINI KEYS METODI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNI TADQIQ ETISH: ASOSIIY TUSHUNCHA VA QONUNIYATLAR.....	78
11. Karimova Maftuna RIVOJLANGAN DAVLATLARNING UMUMIIY TA‘LIM MUASSALARIDA BOLALAR ZO‘RAVONLIGINI OLDINI OLISHGA QARATILGAN CHORA –TADBIRLAR.....	90
12. Butoyev Ilxom SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANISHIDA MA‘NAVIYAT TARBIYASINING TUTGAN O‘RNI.....	98
13. Bozorova O‘lmasxon YOSHLAR III RENESSANS MA'RIFIY STRATEGIYASINING HARAKATLANTIRUVCHI KUCHI.....	103

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Butoyev Ilxom


Samarqand davlat universitetining

Kattaqo‘rg‘on filiali,

“Gumanitar fanlar” kafedrası o‘qituvchisi

e-mail: Ilxombutoyev@mail.ru

SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANISHIDA MA’NAVIYAT TARBIYASINING TUTGAN O‘RNI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.8399525>

ANNOTATSIYA

Maqolada sog‘lom turmush tarzining shakllanishida ma‘naviyat tarbiyasining tutgan o‘rni masalasi tahlil qilingan. Ma‘naviyat, uning tarkibiy qismlari, jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni, ma‘naviyatning madaniy boyliklar, qadriyatlar, ma‘naviy meros bilan aloqadorligi masalalari ko‘rib o‘tilgan. Ma‘naviyatning axloq, iymon-e‘tiqod, diniy va dunyoviy bilimlar bilan bog‘liqligi, uning sog‘lom turmush tarzi shakllanishiga ta‘siri, barkamol inson tarbiyasida tutgan o‘rni masalalari o‘rganilgan. Ma‘naviyatning sog‘lom turmush tarzi shakllanishiga ta‘siri, ma‘naviyatning barkamol inson tarbiyasida tutgan o‘rni. Diniy qadriyatlarni tiklash milliy tiklanishning, milliy o‘zlikni anglashning muhim omili sifatida e‘tirof etilmoqda.

Kalit so‘zlar: Sog‘lom turmush tarzi, ma‘naviyat tarbiyasi, ma‘naviyatning tarkibiy qismlari, jamiyat taraqqiyotida ma‘naviyatning o‘rni, ma‘naviyatning madaniy boyliklar, qadriyatlar, ma‘naviy meros bilan aloqadorligi.

Бутоев Ильхом

Преподаватель кафедры Гуманитарных наук

Каттакурғанского филиала

Самарқандского государственного университета

e-mail: Ilxombutoyev@mail.ru

РОЛЬ ДУХОВНОГО ВОСПИТАНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется роль духовного воспитания в формировании здорового образа жизни. Рассмотрены вопросы духовности, ее составляющих, ее роли в развитии общества, взаимосвязи духовности с культурными ценностями, ценностями, духовным наследием. Изучены взаимосвязь духовности с нравственностью, верой, религиозными и мирскими знаниями, ее влияние на формирование здорового образа жизни, роль духовности в воспитании всесторонне развитой личности, влияние на формирование стиля, роль духовность в воспитании всесторонне развитой личности. Восстановление религиозных ценностей признано важным фактором национального возрождения и реализации национального самосознания.

Ключевые слова: Здоровый образ жизни, духовное воспитание, компоненты духовности, роль духовности в развитии общества, связь духовности с культурными ценностями, ценностями, духовным наследием.

Butoyev Ilkhom

Samarkand State University Kattakurgan branch,

Teacher of the "Humanities" department

e-mail: ilxombutoyev@mail.ru

THE ROLE OF SPIRITUAL EDUCATION IN THE FORMATION OF A HEALTHY LIFESTYLE

ANNOTATION

The article analyzes the role of spiritual education in the formation of a healthy lifestyle. The issues of spirituality, its components, its role in the development of society, the relationship of spirituality with cultural assets, values, and spiritual heritage were considered. The relationship of spirituality with morality, faith, religious and worldly knowledge, its influence on the formation of a healthy lifestyle, issues of its role in the education of a well-rounded person were studied. The restoration of religious values is recognized as an important factor of national revival and realization of national identity.

Key words: Healthy lifestyle, spiritual education, components of spirituality, role of spirituality in the development of society, connection of spirituality with cultural assets, values, spiritual heritage.

KIRISH.

Jamiyatda sogʻlom turmush tarzini shakllantirishda maʼnaviyat tarbiyasi muhim oʻrin tutadi. Maʼnaviyat insonni ruhiy poklanish va yuksalishga daʼvat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon irodasini, eʼtiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uygʻotadigan qudratli botiniy kuchdir. Maʼnaviyat jamiyat va millat ravnaqi, insonda sogʻlom turmush tarzi shakllanishining muhim omilidir. Jamiyat hayotida maʼnaviyatni shakllantirish axloq, maʼnaviy meros hamda qadriyatlar asosida amalga oshiriladi. Maʼnaviyatning negizi sifatida axloq insonda insof, adolat, iymon, halollik tuygʻusini shakllantirishga yordam beradi.

Bugungi kunda zamonaviy ilm-fan va yuqori texnologiyalarni mukammal egallash har qanday davlat va jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi shartiga aylanib borayotgani hech kimga sir emas, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - ana shu haqiqatni chuqur anglagan holda, biz navqiron avlodimizning ham jismoniy, ham maʼnaviy jihatdan barkamol boʻlib voyaga yetishi uchun bor kuch va imkoniyatlarni safarbar etmoqdamiz [1, - B.442].

Boy va yuksak maʼnaviyat insonda sogʻlom turmush tarzi shakllanishining muhim omilidir. Har bir alohida inson va butun millatning maʼnaviy kamoloti, ularda sogʻlom turmush tarzini shakllantirish orqali adolatli va insonparvar jamiyat barpo etiladi. Maʼnaviyatni yuksaltirish asosida xalq oʻzligini angelaydi, oʻz tarixini idrok etadi, jamiyat hayotidagi oʻzining vazifasini anglab yetadi. Xalqning maʼnaviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va oʻziga xosligining qayta tiklanishi jamiyatni yangilash va taraqqiy ettirishdagi muhim bosqichdir. Yoshlarda maʼnaviyatni shakllantirish va sogʻlom turmush tarzini qaror toptirish keng koʻlamli madaniy, tarixiy, maʼrifiy, tarbiyaviy ishlarni bajarish asosida amalga oshiriladi.

METODOLOGIYA.

Yoshlarning iymon-eʼtiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni oʻz mustaqil fikriga ega boʻlgan barkamol insonlar etib tarbiyalash sogʻlom turmush tarzini shakllantirishning muhim jihatidir. Jamiyatning maʼnaviy yangilanishi yuksak maʼnaviyatli, axloq-odobli, iqtidorli, bilim saviyasi yuqori, zukko, ishbilarmon, ishchan insonlar asosida amalga oshiriladi. Ularning texnikaviy bilim, murakkab texnologiyalarni egallash qobiliyati maʼnaviy barkamollik, mustaqil tafakkur bilan birga amalga oshiriladi. Kundalik hayotda "maʼnaviyat" koʻpincha insonning va jamiyatning moddiy ishlab chiqarishga bevosita oid boʻlmagan aqliy faoliyati mahsulotlariga

(ma'naviy madaniyatiga) hamda axloqiy, diniy qarashlarga va iymon-e'tiqod amaliyotiga nisbatan ishlatiladi. Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida atama mazmuni kengayib va chuqurlashib, moddiylikka kirmaydigan barcha ijtimoiy hodisalar majmui "ma'naviy madaniyat" deb ataldi. Bular – ilm-fan, falsafa, axloq, huquq, din, ta'lim-tarbiya, ommaviy axborot va targ'ibot, mafkura, urf-odatlarining mafkura va e'tiqod bilan bog'liq jihatlari va shu kabilar. Bunday keng talqindagi "ma'naviy madaniyat", tabiiyki, "ma'naviyat" tushunchasini boyitdi [2, -B.10], deb hisoblaydi Abdurahim Erkayev.

ASOSIY QISIM.

Ma'naviy madaniyat jamiyatning ta'lim, fan, san'at, adabiyot, din va hokazo sohalarida qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlarni, shu bilan birga, bu yutuqlardan ishlab chiqarishni o'stirishda, ijtimoiy taraqqiyot sohasida yuzaga keladigan muammolarni hal etishda mahorat ko'rsatishni o'z ichiga oladi, - deydi Qamar Amon, - shubhasiz, turli zamonlardagi fanning taraqqiyot darajasi, aholi turli qatlamlarining ma'rifatliligi darajasi o'sha davrdagi moddiy ishlab chiqarishning qay darajadiligiga va ishlab chiqarish munosabatlarining xususiyatidan kelib chiqadi. Bu omillarga kishilarning ruhiy olamiga bevosita aloqador bo'lgan hayot sohalarini ko'proq bog'liq [3, - B.27].

Ma'naviyat keng qamrovli, mazmunan boy tushuncha bo'lib unga turli ta'riflar berilgandir. Ma'naviyat deganda – shaxsiy ong, kishilarning ruhiy faoliyati, axloq, nafosat va nazariy qadriyatlar yig'indisi, insonning his-tuyg'ulari, insonning jami axloqiy qadriyatlari yig'indisi kabi tushunchalar qo'llaniladi. Ma'naviyat, eng avvalo, alohida shaxsning, butun jamiyatning e'tiqod va qadriyatlariga aylangan g'oyalari, me'yori, omillaridir, ularning madaniy merosda va urf-odatlarda aks etishidir hamda ezgu niyatlarini, orzu-havaslarini amalga oshirishga qaratilgan ijodkor ongning, bevosita qalbning kamolotga intiluvchan faoliyatidir, - deydi Abdurahim Erkayev. - Ma'naviyat shaxsning va jamiyatning insoniylik darajasi, ya'ni har bir narsa va hodisalarga baho berishda, ta'sir ko'rsatishda insoniylik me'yoriyidan kelib chiqib yondashishidir [4, - B.5-6].

Ma'naviy barkamol inson tushunchasi inson axloqi va odobini, ularda shakllangan barcha ijobiy xislatlarni, ularning insonlarga, jamiyatga va Vatanga bo'lgan munosabatlaridan tortib, toki oilaga, ota-onaga va boshqalarga munosabatlarining barcha qirralarini qamrab oladi. "Ma'naviyati boy insongina komil inson bo'la oladi, - deb hisoblashadi Sobir Ziyayev va Komil Haydarov, - yuksak axloqiy, madaniy va jismoniy fazilatlar har jihatdan uyg'un bo'lgan, chuqur va zamonaviy bilimga, keng ilmiy-falsafiy dunyoqarashga ega bo'lgan inson komil bo'ladi [5, -B.80].

Ma'naviyat jamiyat taraqqiyotining muhim omili bo'lib, u nafaqat bugungi madaniy boyliklarda, qadriyatlarda, zamonaviy tamoyillarda, balki shu bilan birgalikda xalqimizning ko'p asrlik ma'naviy merosida namoyon bo'ladi. O'zbekistonning boy ma'naviy merosi shakllanayotgan yangi ma'naviyatimizning negizini, poydevorini tashkil qiladi. Ma'naviy merosimizda xalqimizning asriy orzu-intilishlari, bilimlari va hayotiy tajribalari mujassamlashgan bo'lib, u o'zligimizni anglash, milliy tiklanish va rivojlanishimiz uchun qudratli tayanch bo'lib xizmat qiladi [6, -B.36].

Ma'naviyatning ma'naviy madaniyat bilan bog'liqligi masalasi, "Ma'naviyat – kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui"dir degan ta'rifda o'z ifodasini topgandir. Ma'naviyat – insonning ruhiyatini, o'zligini anglashi, didi, farosati, adolat bilan razillikni, ezgulik bilan yomonlikni, go'zallik bilan xunuklikni, vazminlik bilan johillikni ajrata bilish qobiliyati, aql-zakovati, yuksak maqsad va g'oyalarni qo'ya bilish, ularni amalga oshirish uchun harakat qilish va intilish salohiyatidir [7, -B.19], degan ta'rifda ma'naviyatning psixologiya, axloqshunoslik, nafosatshunoslik bilan bog'liqligi masalasiga e'tibor qaratilgan. Ma'naviyat insonning butun umri davomida uning kuchiga kuch qo'shishiga, aql-idrok va zakovatini kengaytirib, mustahkamlashiga xizmat qiladi. Ma'naviyat va ma'naviy boyliklar, qadriyatlar, davlat, millat, shaxsning bebaho xazinasini va taraqqiyot manbaidir. Har bir millatning o'z ma'naviyatini chuqur anglashi, ongining tarkibiy qismiga aylantirishi millatning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi, e'tiqod va qadr hissini boyitadi [8, -B.72].

Sharqona odob-axloq va umumbashariy g'oyalarni ongiga singdirib olgan inson yuksak ma'naviyatli, ya'ni ma'naviy barkamol, komil inson hisoblanadi. Ma'naviy barkamollik insonning dunyoqarashi, e'tiqodi, ruhiyati, xulq-atvor normalari, axloq-odobi bilan bevosita aloqadordir.

Sogʻlom deganda, faqat jismonan baquvvat farzandlar emas, balki maʼnaviy boy avlod, aqliy rivojlangan, axloqiy pok, maʼrifatli farzandlar tushuniladi. Bunday kishilarda barkamol insonning maʼnaviy fazilatlarini - iymon va insof, mehr-oqibat, shafqat va rahmdillik, uyat va andisha, or-nomus, oʻzaro hurmat, yuksak vatanparvarlik, eliga va xalqiga sadoqat kabi qadriyatlar va gʻoyalar shakllantiriladi. Insonning insoniyligi, birinchi navbatda uning maʼnaviy-axloqiy jihatdan barkamolligi, pokligi bilan belgilanadi [9]. Insondagi maʼnaviy-maʼrifiy barkamollikning qirralari milliy gʻurur va iftixordan iborat boʻlib, milliy gʻurur va iftixor oʻz xalqining boy tarixiy moddiy va maʼnaviy boyliklari, tarixiy merosi, urf-odatlarini, anʼanalari, odob-axloqi, turmush tarzi, yuksak maʼnaviyati, barcha tarixiy yutuqlari va saboqlariga cheksiz hurmat va eʼtibor bilan munosabatda boʻlishni oʻzida ifodalaydi. Komillikka inson butun umri davomida erishib boradi. Sogʻlom avlod, maʼnaviy barkamol, komil inson tushunchalari darajama-daraja inson maʼnaviy kamolotini oʻzida ifodalaydi. Insonning chin maʼnodagi insoniyligi - uning iymoni, diyonati, mehr-oqibati, pokligi va halolligi, kamtarligi va boshqa axloqiy sifatlarini bilan belgilanadi. Iymonli kishilar poklik va halollik, diyonat, ezgulik, mehr-oqibat kabi axloqiy sifatlarga ega boʻladilar. Iymon arab tilida ishonch degan maʼnoni bildiradi. Maʼnaviy-axloqiy fazilat sifatida iymon faqat insongagina xos boʻlgan ruhiy hodisa boʻlib, u inson maʼnaviyati, axloqining asosi, poydevori va negizini tashkil etadi. Iymon dunyoviy va diniy xususiyatga ega boʻlib, dunyoviy iymon dunyoviy dunyoqarash, bilimlar, axloqiy qarashlar asosida shakllantirilsa, diniy iymon diniy taʼlimot asosida vujudga keladi. Dunyoviy iymon olam va odam haqidagi ilmiy-falsafiy bilimlar, insonning hayotiy tajribasi, ijtimoiy xotirasi, turli-tuman udumlar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, anʼanalar va ular zamiridagi bilimlarga asoslanadi. Insondagi ijobiy fazilatlar tarzida eʼzozlanadigan axloqiy qadriyatlar va insonparvarlik gʻoyasi xalqimizning butun turmush tarziga, urf-odatlarini hamda anʼanalariga singib ketgandir. Diniy iymonda koʻproq Allohga, dunyoviy iymonda esa odamiylikka, chin insoniylikka asosiy eʼtibor qaratiladi. Bugungi kunda iymonli deganda eʼtiqodli, oʻzining aniq maslagiga ega boʻlgan, taqvodor, hamiyatli, oriyatli, or-nomusli, sharm-hayoli, vijdonli, andishali, insofli, kamtarin, halol va pok, toʻgʻri soʻz kabi fazilatlariga ega boʻlgan inson tushuniladi. Poklik va halollik inson iymonli boʻlishining asosiy shartidir.

Millatning, xalqning kuch qudrati uning siyosiy yetukligi, milliy ongning oʻsganligi, milliy gʻururi, milliy hissiyoti, milliy tuygʻusining darajasi, oʻz-oʻzini anglab yetganligi, milliy uyushganligi bilan belgilanadi. Hozirgi davrda Oʻzbekistonda milliy oʻzlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, milliy gʻurur va iftixor tuygʻularini yuksaltirish masalasiga katta eʼtibor qaratilmoqda. “Dunyoviylik dahriylik emas” degan tamoyil asosida davlat va din oʻrtasidagi munosabatlar amalga oshirilmoqda. Diniy qadriyatlarni tiklash masalasiga eʼtibor kuchaytirilmoqda. Diniy qadriyatlarni tiklash milliy tiklanishning, milliy oʻzlikni anglashning muhim omili sifatida eʼtirof etilmoqda.

Biz butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev. - Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zoʻravonlik va qon toʻkish bilan bir qatorga qoʻyadiganlarni qatʼiy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarini asrab-avaylashga daʼvat etadi [10, -B. 253]. Islom dini insonlarning yashashdan maqsadi nima ekanligini, qanday yashash lozimligini, inson hayotining mazmuni nima ekanligini, insof, adolatni, tinchlikni, eng muhimi, insonlar halol va pok mehnati bilan kun koʻrishi, ilm-maʼrifatga ega, birodar boʻlishi lozimligini targʻib qiladi. Islom dinida milliy va diniy bagʻrikenglikka amal qilinib, turli millat va din vakillariga bir-birlarining tillari, tarixlari, madaniyatlarini, milliy urf-odatlarini, qadriyatlarini bilish va hurmatlashlari qoʻllab-quvvatlanadi hamda ular oʻzaro totuv boʻlib yashashga daʼvat etiladi. Oʻzbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida sogʻlom turmush tarzini qaror toptirish, fuqarolarning dunyoviy bilimlar asosida dunyoqarashini shakllantirish, diniy qadriyatlar asosida ularning axloqiy, maʼnaviy tarbiyasini olib borishga katta eʼtibor qaratilmoqda.

XULOSA.

Oʻzbekiston fuqarolarida sogʻlom turmush tarzini shakllantirishda maʼnaviyat tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etib, ushbu tarbiyada maʼnaviyatining botiniy va zohiriy jihatlariga katta

e'tibor berilmoqda. Fuqarolarda iymon, diyonat, fidoyilik, vijdonlilik, mehr-shafqat, poklik va halollik singari axloqiy fazilatlarni shakllantirish shaxs ma'naviyatining botiniy jihatlari bo'lib hisoblansa, orasta va pokiza kiyinish, kamtar bo'lish, boshqalarga hurmat-e'tibor bilan munosabatda bo'lish, salbiy illatlardan uzoq yurish, muomalada oddiy va samimiylik shaxs ma'naviyatining zohiriy jihatlari.

Sog'lom turmush tarzining shaxs ma'naviyati bilan bog'liq bo'lgan mezonlari mavjud bo'lib, bu mezonlarga shaxsning jamoatchilik va mehnat jarayonlarida faollik ko'rsatib, samarali ijodiy faoliyat bilan mashg'ul bo'lishi; oilada va kundalik turmushda namunali yashashi; o'zidagi jismoniy va ma'naviy qobiliyatlarni ro'yobga chiqarishga intilishi; tabiiy va ijtimoiy muhit bilan mutanosiblikda yashashi; sog'lom va barkamol inson bo'lib shakllanish uchun o'z shaxsini bosqichma-bosqich rivojlantirib borishga intilishi; nosog'lom turmush tarziga xos zararli odatlarning ta'siriga tushib qolishdan o'zini asrashga intilib yashashi; hayotda to'g'ri yashayotganidan qoniqish hosil qilib, zavqlanib yashashga intilishi; sog'lom turmush tarzini o'zi uchun bir umrga maqsad qilib tanlashi va shu yo'lda faoliyat olib borishi kabi qimmatli insoniy axloqiy sifat va xususiyatlarni kiritish mumkin.

O'zbekistonda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish va sog'lom avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosatidagi eng muhim masalalardan biridir. Jismonan sog'lom, yuksak ma'naviyatli va yagona milliy g'oya, milliy mafkura asosida jipslashgan xalq va millatni tarbiyalash ularda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish asosida amalga oshirilmoqda. Milliy g'oya, milliy mafkura asosida milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, fuqarolarda axloqiy va ma'naviy fazilatlarni tarbiyalashning muhim jihatlardan biridir.

O'zbekistonda "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari!" degan g'oya asosida demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonda barpo etilayotgan davlat va jamiyatda dunyoviy va diniy qadriyatlar uyg'unligi asosida fuqarolar ma'naviyatini shakllantirish, ularda ma'naviy fazilatlarni qaror toptirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Milliy ma'naviyat va ma'rifatni fuqarolar ongi va qalbiga singdirishda boy tarixiy ma'naviy meros, zamonaviy ilmiy bilimlar, axloqiy va ma'naviy qadriyatlar asosida fuqarolar dunyoqarashini shakllantirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. –Toshkent, O'zbekiston, 2020 yil, 442 bet.
2. Erkayev A. Ma'naviyat va taraqqiyot. –Toshkent: Ma'naviyat, 2009 yil, 10 bet.
3. Qamar Amon. Ma'naviyat nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Sharq, 2002 yil, 27 bet.
4. Erkayev A. Milliy g'oya va ma'naviyat. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002 yil, 5-6 betlar.
5. Ziyayev S., Haydarov K. Milliy g'oya va ma'naviy tarbiya. – Samarqand, 2011 yil, 80 bet.
6. Umarov E., Abdullayev M. Ma'naviyat asoslari. – Toshkent: Cho'lpon, 2006 yil, 36 bet.
7. Nosirxo'jayev S.H., Lafasov M.F., Zaripov M.Z. Ma'naviyat asoslari. –Toshkent: Sharq, 2005 yil, 19 bet.
8. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar. – Toshkent, Yangi asr avlodi, 2002 yil, 72 bet.
9. Сухомлинова М. В., Сабирова У. Ф. Формирование здоровьесберегающего пространства вуза //Журнал социальных исследований. – 2020. – Т. 3. – №. 1.
10. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. –Toshkent: O'zbekiston, 2018 yil, 253 bet.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

6 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
ТОМ 6, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
VOLUME 6, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000